

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 11. November 2024

Konfutsiylik —qadimgi Xitoy jamiyatini mustahkamlash asosi

Ibroximjonova Gulnoza Nuriddin qizi

Andijon davlat pedagogika Instituti

"Filologiya" fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi
2-bosqich talabasi.

Email: gulnozaibroximjonova8@gmail.com

Tel: (+998 94) 628-25-56

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoydagি axloqiy-siyosiy ta'limot hisoblangan konfutsiylik dini haqida va uning asoschi bo'lgan Konfutsiyning hayoti haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Shan davlati, Chjou davlati, Sin podsholigi, Xan podsholigi, Lu shahri, pedagog, «Lun'-yu», «past kishi», «olijanob er».

Аннотация: В этой статье представлена информация о конфуцианстве, моральном и политическом учении в Китае, а также о жизни его основателя Конфуция.

Ключевые слова: Государство Шан, Государство Чжоу, Королевство Синь, Королевство Хань, Город Лу, педагог, «Лунь-юй», «низкий человек», «благородный человек».

Abstract: This article provides information about Confucianism, a moral and political doctrine in China, and the life of its founder, Confucius.

Key words: State of Shan, State of Zhou, Kingdom of Xin, Kingdom of Han, City of Lu, pedagogue, "Lun'-yu", "low man", "noble man".

Xitoy Markaziy va Sharqiy Osiyodagi eng qadimgi mamlakatlardan biri hisoblanib, arxeologik ma'lumotlarning xabar berishicha, u yerda odamlar qadimgi tosh davridanoq yashay boshlaganlar. Qadimgi Xitoy davlati tarixi quyidagi to'rt davrga: 1) Qadimgi Xitoy davlatining tashkil topishi – Shan (In) davlati (mil.avv. XVIII–XII asrlar); 2) Chjou davlati (mil.avv. XI–III asrlar); 3) Sin podsholigi (mil.avv. 221–207 yillar); 4) Xan podsholigi (mil.avv. 206 yildan milodning 220 yiligacha) davriga bo'lib o'rganiladi. So'nggi davr quzdorlik davlatining feudal davlatga aylanishi bilan xarakterlanadi. Olimlar, adiblar, qirol va imperatorlar dini deya e'tirof etilgan Konfutsiylik Qadimgi Xitoyning diniy–falsafiy ta'limotlaridan biri bo'lib, unga mil.avv

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

VI asrda faylasuf va pedagog Konfutsiy (Kun Szi, mil.avv. 551–479 yil) asos solgan. U Xitoyning hozirgi Lu shahrida 27 avgust kuni mahalliy sehrgarlarga qarashli tuproqli tepalikdagi g'orda tug'ilgan. Shuning uchun ham tug'ilgan vaqtida uni Chjun Ni Syu (Chjun – ikkinchi o'g'il, Ni – tuproq, Syu – tepalik) deb ataganlar. Bobosi o'zi yashagan viloyatda voliy, otasi – Shu Lanxe esa Lu podshohligida harbiy zabit bo'lib xizmat qilgan. Uch yoshida otasidan ayrilgach yolg'iz onasi bilan qoladi, biroq ko'p o'tmay onasi ham vafot etadi. Og'ir qiyinchiliklarga qaramasdan, Konfutsiy kelajakdagi mavqe'ini mustahkamlash uchun kuchli ishtiyoq bilan o'z ustida muntazam ishlab, yaxshi ta'lif–tarbiya va bilim olishga erishadi. Mil.avv VI–V asrlarda Xitoyda “Lyu Ining olti san'ati”ni egallagan odam bilimli hisoblangan. Shuning uchun ham yosh Konfutsiy mazkur san'atlarni o'zlashtirishga astoydil kirishadi va buning uddasidan chiqadi. U har doim o'zini qiziqtirgan savollarga mukammal javob topishga, Lu podshohligining davlat qurilish tizimini va “Li” qonunlaridagi axloq normalarini to'liq o'zlashtirishga harakat qiladi. U mil.avv 533 yil Sun podshohligidagi Si oilasidan uylanib, ikkita farzandli (bir o'g'il, bir qiz) bo'ladi. Konfutsiy o'zining bosib o'tgan umriga nazar solib, u haqida shunday deydi: “Men 15 yoshda bor e'tiborimni faqat o'qishga qaratdim, 30 yoshda mustaqil fikrlaydigan bo'ldim, 40 yoshda shubha–gumonlar iskanjasidan qutildim, 50 yoshda osmonning irodasini anglab yetdim, 60 yoshda haqni nohaqdan ajratishni o'rgandim, 70 yoshda qalbim amriga bo'ysundim va diniy marosimlarni bekamu–ko'st bajardim”. Konfutsiy dastlab o'zidan oldin yashab o'tgan buyuk shaxslarning hikmatli so'zlarini sharhash bilan shug'ullangan va bu orqali uning shuhrati asta–sekin har tomonga yoyila boshlagan. Qisqa muddat ma'murlik ishlaridan keyin ta'limotini amaliyatga joriy qilish maqsadida xayrixoh bir hukmdorni izlash uchun o'z oilasini tashlab, bir necha yil dunyo kezib yuradi. Chunki, uning ta'limoti o'sha paytdagi siyosiy muhitga munosib emas edi. Garchi faylasuf podshohlar xizmatida bo'lgan paytlarida o'zining ba'zi islohotlarini amalga oshirishga harakat qilgan bo'lsada, ammo ko'pchilik takliflari amaldor va hukmdorlar tomonidan qo'llab–quvvatlanmagan. Uning e'tiborini tortgan narsa, o'z zamonasining kamchiliklari va aybu nuqsonlari edi. Oddiy xalqning nochorligi, amaldorlarning zolimligi, hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, qadimgi ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashish kabi holatlar Konfutsiyning keskin tanqidiy qarashlarini yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. U mavjud muammoni hal qilishda yangicha qarashlarga tayanish lozimligini anglab yetib, umrining so'nggi 5 yilini asar yozish, shogirdlar yetishtirish va o'z qarashlarini tarqatish bilan o'tkazgan. Eng muhim asari “Konfutsiylik” deb nomlangan. [1]

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Konfutsiylikning asoschisi Qadimgi Xitoy mutafakkiri Kun-szidir. Konfutsiy qarashlarini shogirdlari bilan o‘zaro suhbatlarda bayon qilganligi sababli yozma manbalarni qoldirmagan. Uning g‘oyalarini shogirdlari va do‘satlari yozib borgan. Mazkur hujjatlar asosida keyinchalik «Lun’-yuy» («suhbat va mulohazalar») nomli kitob chop qilingan. O‘sha davrda davlatda o‘zaro urushlar kuchayib, ijtimoiy barqarorlik yo‘qolgan. Shu bois Konfutsiy jamiyatni mustahkamlashning diniyaxloqiy asoslarini ishlab chiqishga, ijtimoiy barqarorlikka esa qadimgi e’tiqod va an’analarni qayta tiklash bilan erishishga intilgan. Mutafakkir kishilarni osmonga va ajdodlar ruhiga sig‘inishning ilgarigi ahamiyatini qayta tiklashga da’vat etgan. Qadimgi an’analarga ko‘ra, dunyo tartibli va o‘zaro aloqador abadiy ibtido bo‘lib, bir xil qonuniyatlar asosida spiralsimon rivojlanadi. Odam o‘zaro aloqador va tartibli olamda o‘z o‘rnini topishi kerak. Buning uchun u mukammallikka intilishi zarur. Konfutsiy mukammallikka intiluvchi «ideal kishi» to‘g‘risidagi g‘oyani ishlab chiqqan. Olam bilan hamohang yashashga qodir bo‘lgan insonni «olijanob er», uning antipodini «past kishi» deb atagan. Ideal kishiga quyidagi beshta sifat xos: hissiylik, burch, bilim, me’yorni bilish hissi va ishonch. Olijanob inson burch va qonunga itoat etadi. Past kishi «yog‘li» joyni egallahsga va ko‘proq foyda olishga intiladi. Birinchisi o‘ziga ikkinchisi odamlarga talabchandir. Olijanob inson to‘g‘risida uning mayda ishlariga qarab baho berib bo‘lmaydi, lekin katta ishlarni unga ishonib topshirish mumkin. Past kishiga katta ishlarni ishonib topshirib bo‘lmaydi, uning mayda ishlariga qarab xulosa chiqarsa bo‘ladi. Birinchisi odamlar bilan kelishib yashaydi, lekin ularga taqlid qilmaydi. Past kishi boshqalarga ergashadi, lekin ular bilan kelishib yashay olmaydi. Olijanob insonga xizmat qilish oson, lekin uni xursand qilish qiyin, chunki u zaruratdan shodlanadi. Ikkinchisini xursand qilish oson, lekin unga xizmat qilish qiyin. Olijanob inson insonparvarlik va zarurat sababli o‘limga tik boradi, ammo past kishi umrini o‘z joniga qasd qilish bilan yakunlaydi. Olijanob inson uch narsadan: Osmon amridan, buyuk insonlardan va aqli so‘zlardan qo‘rqadi. Past kishi Osmon amrini bilmaydi va undan qo‘rqmaydi, amali katta aqli odamlardan nafratlanadi, ularning maslahatlariga amal qilmaydi. [2]

Ajdodlar ruhiga sig‘inish va «syao» ta’limoti oilaviy qadriyatlarning jamiyatda mustahkamlanishiga yordam bergen. Oila jamiyatning negizini tashkil qilgan va shaxs manfaatlaridan oila manfaatlari ustun qo‘yilgan. Oilaviy munosabatlarni tashkil etishda hissiyot, tuyg‘ular muhim emas. Muhabbat o‘tkinchidir. Uning yo‘qligi er-xotinning asosiy burchi hisoblanuvchi ko‘p farzandli bo‘lish va ularga tarbiya berish vazifasining

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

bajarilishiga xalaqit bermasligi lozim. Ajdodlar ruhiga sig‘inishning muhim jihatlaridan biri – kattalarga so‘zsiz bo‘ysunish. Har qanday katta kishiga, ota-onasi, davlat xizmatchisi yoki hukmdorga kichik, xodim yoki fuqaro so‘zsiz itoat etishi lozim. Yoshlarni kattaga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunishi fozillik hisoblangan. [3]

Mil.avvalgi 195 yildan boshlab Konfutsiy nomi Xitoyda ilohiylashtirildi va unga atab muntazam qoidalar asosida qurbanliklar qilinadigan bo’ldi. Xan sulolasi davrida Konfutsiyga knyazlik unvoni berildi. X-XIII asrlarga kelib, Sun sulolasi davrida unga imperatorlik unvoni, otasiga esa knyazlik unvoni berildi. Keyinroq Yuan va Min sulolalari (XIII-XIV asrlar) davrida unga yana ham yuksakroq unvon – "Eng haqiqiy donishmand", "Millatlarning ulug’ ustoz" unvonlariga sazovor bo’ldi. Xitoy shaharlarida Konfutsiyga atab 1000 dan ortiq ibodatxonalar qurildi. Ilk davrlarda ibodatxonaning qurbanlik qilinadigan joyida oddiygina Konfutsiy nomi yozilgan lavha osilgan edi. Xitoyga buddaviylikning kirib kelishi oqibatida bu lavha o’rnini Konfutsiyning haykali egalladi. Stuyfudagi ibodatxonadan boshqa barcha ibodatxonalar bir xil shaklga ega edi. Unda Konfutsiy haykali yonida uning shogirdlaridan 86 tasining nomi yozilgan lavha yoki haykallari qo’yilgan. Har oyda ikki marta 1 va 15 kunlarda Konfutsiy haykali oldida odatiy qurbanliklar, yilda ikki marta — bahorda va kuzda alohida tantanali marosimlar o’tkazilar edi. Tantanaga kelgan imperator va ularning mulozimlari donishmand timsoli oldida turib unga "Sen buyukan, ey mutlaq donishmand, sening fazilatlarin ko’p, ta’limoting beqiyos, o’tganlar orasida senga tengi yo’q!" kabi maqtovlar va olqish so’zlari bilan murojaat qilishgan. Konfutsiy nomi o’rta asrlarda Xitoyda ilohiylashtirildi. Uning timsoli hattoki podshohlar boshidagi tojlardan o’rin oldi. Xulosa sifatida qayd etish lozimki, hozirgi davrda konfusiylik Xitoyda oldingi mavqeini yo‘qotgan bo‘lsa-da, diniy e’tiqod sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan.

Research Science and Innovation House

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 11. November 2024

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. А.Очилдиев, фалсафа фанлари доктори, профессор, Д.Раҳимжонов, тарих фанлари номзоди, доцент, Н.Муҳамедов, тарих фанлари номзоди, доцент , Исоқова, тарих фанлари номзоди, доцент, А.Аллоқулов, катта ўқитувчи, Ж.Нажмиддинов, илмий тадқиқотчи, Ж.Каримов, илмий тадқиқотчи, Ж.Алиев, илмий тадқиқотчи, А.Аҳмедов, илмий тадқиқотчи, Н.Каримова, илмий тадқиқотчи, Д.Турдиева, илмий тадқиқотчи. "ДИНШУНОСЛИК АСОСЛАРИ" ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМА. «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси Тошкент – 2013. 116-125bet.

2. Древнекитайская философия: Собр. текстов. Т. 1.— М. , 1972.— С. 170.

3. A. V. NARBEKOV. "DINSHUNOSLIK ASOSLARI" o'quv qo'llanma — T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. Toshkent-2012.

**Research Science and
Innovation House**